ISMLARDA YASHAYOTGAN JOYLAR, JOYLARDA YASHAYOTGAN ISMLAR: ANTROPONIMIKA VA TOPONIMIKA KESISHMASI

Ibragimova Rayhona
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi va jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24220032

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikning onomastika sohasi tarkibiga kiruvchi antroponimika va toponimika yo'nalishlarining o'zaro uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Inson ismlarining geografik hududlar nomiga qo'yilishi yoki aksincha joy nomlarining inson ismlarida aks etish jarayoni yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *onomastika, antroponimika, toponimika, tilshunoslik.*

Abstract. *This article analyzes the interconnectedness of anthroponymy and toponomy, which are subfields of onomastics in linguistics. It highlights the process of naming geographical locations after human names, as well as the reverse phenomenon of reflecting place names in human naming.*

Keywords: *linguistics, onomastics, anthroponymy, toponymy, interconnectedness, naming process.*

Kirish. Qadimda atoqli otlarning mavjud bo'lmagani haqida ko'plab qarashlar bor, chunki atoqli otlar til taraqqiyotining qisman keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar) asosida shakllangan. Vaholangki, har bir xalqning o'tmishi, madaniy me'rosi va geografik dunyoqarashi, avvalo, o'z tili va ushbu tildagi atoqli otlari yordamida muhrlanadi. Shu sababli onomastika sohasining yetakchi tarmoqlari hisoblangan antroponimika va toponimika uzoq yillar davomida bir-biridan alohida soha sifatida o'rganilib kelingan bo'lsa-da,ammo,bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslik bu ikki yo'nalish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda.

Tilshunoslikda bu kishi ismlari asosida yuzaga kelgan joy nomlari antroponimika atamasi bilan nomlab kelinmoqda. Biror geografik hududlarga inson ismlarining berilishi bu shunchaki tasodifiy bir hodisa emas. Taniqli toponomist olim Suyun Qorayevning ta'kidlashicha,qadimda muayyan hududga birinchi bo'lib kelgan,u yerda ilk quduq qazigan, bog' yaratgan yoki o'sha yerga egalik qilgan (beklar, eshonlar, ustalar yoxud dehqonlar) ismi o'sha hududni boshqa obyektlardan ajratib ko'rsatish uchun belgi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, beklar ismlariga oid Jonibek yoki Qilichbek qishloqlari, boylar ismlariga oid Boymurod yoki Omonboy qishloqlari hamda eshonlar ismiga doir Eshonxo'ja qishlog'i yoki Umar eshon ziyoratgohi shular sirasidandir.[1]O'zbek toponimik tizimida bu kabi shaxslardan tashqari millat va jamiyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolar va sarkardalar ismlari ham joy nomlari yaratilishida qo'llanilgan. Bunga Qashqadaryo viloyati hududidagi Amir Temur g'orini aytib o'tish mumkin. Bu kabi siymolarning ismlari faqatgina qadimiy manzilgohlarga emas, balki zamonaviy shahrlar ichidagi geografik va ijtimoiy obyektlarga ham berilgan. Misol uchun, Andijon shahridagi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur sharafiga atalgan madaniyat va istirohat maskani bo'lgan „Bobur bog'i",buyuk mutafakkir hazrat Alisher Navoiy nomini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona hamda muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimovning o'chmas xotirasiga bag'ishlab yurtimizning ko'plab

[1] ziyouz.com

hududidagi ko'chalarga Islom Karimov ko'chasi deb berilgan.[2]Bu kabi antroponimikalarning toponimlarga berilish holatlari faqat yuqoridagilargina emas,chunki bulardan tashqari turli oliy va o'rta ta'lim muassasalarga ham bu holatalr an'ana sifatida shakllangan.

Atoqli otlar tizimida teskari jarayon,ya'ni geografik hudud nomlarining inson ismlariga ko'chishi tilshunoslikda detoponimizatsiya hodisasi sifatida o'rganiladi. Professor Ernst Begmatov o'zining „O'zbek tili antroponimikasi" asarida toponimik ismlarning shakllanishida ota-onalarning orzulari, ruhiy-ma'naviy intilishlari,diniy e'tiqodi va bola tug'ilgan geografik muhit bilan bog'laydi. [3] Misol uchun,hozirgi kunda muqaddas qadamjo va shahar nomi hisoblangan Madina so'zi islomiy qadriyat va orzu-niyatlar ramzi bo'lib,o'zbek xonadonlarida qiz bolalar uchun eng ommaviy ism sifatida qo'llanilib kelinmoqda.Shu bilan birgalikda,VIII-IX asr mutafakkirlari hisoblangan Muso al-Xorazmiy,Ahmad al-Farg'oniy,Imom al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziylarning ismlari ham joy nomlaridan ko'chirilgan.Lekin bu kabi ismlar buyuk allomalarning qayerda tug'ilib-o'sgani haqida ma'lumot berib turishi maqsadida qo'yilgan taxallusdir.Bundan tashqari,qadimda safar vaqti paytida tug'ilgan bolalarga o'sha tug'ilgan joyni eslatib turish maqsadida Toshkenboy yoki Buxorboy kabi ismlar qo'yilgan.Shu bilan birgalikda,atoqli tilshunos olim,akademik Ernst Begamatov o'zining „O'zbek antroponimikasi" yo'nalishidagi fundamental tadqiqotlarida XX asrning birinchi choragida (hujjatlashtirish va pasportlashtirish davrida) o'zbek xalqi o'ziga familiya tanlash jarayoniga duch keldi.Bu davrda rus tilidagi „-ov/-ev" familiya yasovchi qo'shimchalarni mahalliy joy nomlariga qo'shib, yangi modeldagi rasmiy familiyalarni hosil qildi (Toshkent + ov = Toshkentov, Samarqand + ov = Samarqandov). Bu toponimlarning to'g'ridan-to'g'ri yuridik familiyaga aylanishining eng yorqin tarixidir.[4] Yuqoridagi kabi ismalar shuni ko'rsatadiki, joy nomlari shunchaki xaritada qolib ketmaydi, balki inson ismlari yo familiyalariga ko'chib odamlar bilan birga ismlar ichida yashashda davom etadi.

Xulosa qilib aytganda, kishi ismlari va joy nomlarining kesishishi shunchaki oddiy so'z almashishi emas. Chunki bu jarayon xalqimizning o'tmishi va tarixiy xotirasini tilda saqlab qolishga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan faktlar isbotlaganidek, joy nomiga aylangab ismlar ham, ismga aylangan joy nomlari ham o'zbek xalqining yashsh tarzi va qadriyatlarini o'zida saqlab kelayotgan jonli arxivdi. Inson ismi joy nomida joy nomi inson ismida yashashi mudom davom etadi. Bu ikki soha o'rtasidagi bog'liqlik o'zbek tilining naqadar boy va tarixiy jozibaga ega ekanligining yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika: O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 180 b.
2. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.
3. Hasanov H. Geografik nomlar siri. – Toshkent: „O'zbekiston" nashriyoti, 1985. – 120 b.
4. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 288 b.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Onomastika
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Antroponimika
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toponimika

[2] Lex.uz
[3] Ziyouz Elektron Kutubxonasi.
[4] Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013

8. ziyouz.com
9. Lex.uz
10. Ziyouz Elektron Kutubxonasi
11. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013